

SPORTDA ANABOLIK STEROIDLARNING AHAMIYATI

Valixonov Umidjon Shaxobidinovich
Andijon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportda steroidlarning ommalashishi va sportchilar o’rtasida uni iste’moli ortib borayotgani uning oqibatida turli noxush xolatlarga olib kelayotgani haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Steroid, androgen, kortizol, garmon, estradiol, progesteron, aldosteron, endokrinologiya.

Anabolik steroidlar

Avvaliga ushbu atamani izohlab, uning ayrim qisqartmalari bilan tanishib olaylik. Androgen anabolik steroidlar-AAS yoki qisqa qilib aytganda: AS anabolik steroidlar deb ataladi.

Steroidlar (aniqrog’i steroidli garmonlar) ulardan avval qo’llanilgan moddalarning nomi-xolesterin bo’lganligi sababli shunday atalgan. Steroidli garmonlarning eng muhim vositalaridan bular-aldosteron, kortizol, testosteron, estradiol, progesteron va h.k. hisoblanadi [3,4].

Steroidli garmonlar lipofil ya’ni yog’larni erituvchi hisoblanganligi sababli qonda o’tib yuruvchi oqsillar bilan bevosita bog’liqdir. Steroidlarning faqatgina ayrim qismi erkin ko’rinishda qonda bo’ladi va aynan shu erkin fraksiya biologik faollikka egadir. Negaki katakchalarni plazmatik membranalari orqali faqatgina erkin garmon o’tib boradi. Sitoplazma yoki katakcha yadrosida garmon maxsuslashtirilgan retseptorlar bilan o’zaro harakatlanadi. So’ng, retseptor-garmon kompleksi DNKning ma’lum maydonchasi bilan bog’lanib aniq bir genlarning transkripsiyasini ishga tushirib yuborishi yoki ingibitlashtirishi-sekinlashtirish mumkin.

Garmonning ta’sir ko’rsatishi bir necha soat ichida maxsus RNK va oqsillar darajasining o’zgarishiga olib keladi. Qon tarkibida mavjud bo’lgan steroid garmonlari molekulalarining asoiy qismi, nishon-katakchalar bilan o’zaro harakatga kirmay, oxir oqibat faollashtirilmay organizmdan chiqib ketadi.

Androgenlar-bu erkaklarning jinsiy a’zolari va buyrak usti bezi tomonidan ishlab chiqiladigan garmondur. Androgenlar kuchli anabolik va antianabolik ta’sirga ega bo’lib, oqsillar sintezini oshiradi va ularni tarqalib ketishini sekinlashtiradi.

Glyukoza moddasining katakchalar tomonidan glikolitin fermentlarning oshirilishi hisobiga yo’q qilish xavfini oshiradi.

Androgenlar teri osti yog’ining umumiy miqdorini ozayishi va uning massasiga nisbatan qisqarishiga xizmat qiladi, biroq erkaklarda yog’ to’planishi (qorinda) oshirishi, ayollarda esa yonbosh, tos va ko’krak sohalarida yog’ qatlamlarini kamaymshiga olib keladi. Androgenlar qondagi xolesterin va lipidlar darajasini birmuncha pasaytirib, ateroskleroz va qaysidir ma’noda estrogenlarga qaraganda qon-tomir kasalliklarni rivojlanishini sekinlashtiradi.

Androgenlar ayollarda erkaklar uchun xos bo’lgan miqdorida oshishi oqibatida jinsiy a’zoning xajmi kattalashishiga, qisman sut bezlari, bachadon va tuxumdonlarning atrofiyasiga, hayz kelishi yoki ovulyatsiyani to’xtatilishi va bepushtlikka olib kelishi kuzatiladi.

Endokrin tizimga ta’sir ko’rsatishi.


Testosteron va AS garmonal faollikka ega bo‘lganligi sababli ular tabiiy gormonal tizimga ta’sir o‘tkazadi. Bu avvalo erkaklarda reproduktiv tizim hisoblanadi. Uzoq muddat davomida tuxumdonlar atrofiyasiga katta miqdorda ASni inyeksiya orqali yuborilishi maniy (spermani) tabiiy vujudga kelishi buzilishiga olib keladi. Bu holatda spermatazoidlar harakatchanligi, tuxumdonlar ichiga kirib, qobilyatini yo‘qotib soni birmunchaga kamayib ketadi.

Bu muammolar asosan steroidlarni qabul qilish to‘xtatilgandan keyin atletning androgen darajasi estrogenlarning miqdori ko‘payishi fonida namoyon bo‘la boshlaydi[3,4,].

Endokrinologiya asoslaridan biri

Gipotalamo-gipofizar-gonad (GGG) tizimi — erkak va ayollar jinsiy gormonlarini nazorat etuvchi oddiy tizim nomidir. Bu tizimning negativ kayta bog‘lanish tomoni bo‘lib, u steroidlarni qayta ishlab chiqarishda ishdan chiqishi mumkin. Bu xolat miya organizmda kaysidir gormon miqdorining normadan oshib ketganligini sezganda ro‘y beradi.[1]

Erkaklarda miya moyaklarga testosteron ishlab chiqarish xaqida «signal» beradi. Bu kimyoviy «signal» gormonlarni lyutennizatsiyalaydi. Agar, organizmda testosteron (steroid qabul qiluvchi sportchilarga o‘xshab) ko‘p miqdorda ishlab chiqarilsa yoki ko‘payib ketsa, miya buni sezib «signal» yubormay qo‘yadi. Testosteron miqdori xaddan tashqari oshib ketsa GL va follikulostimulyatsiya qiladigan gormon (FSG)ni ishlab chiqarish tuliq to‘xtaydi va natijada sperma (urug‘) ishlab chiqarish xam to‘xtaydi, chunki GL va FSG sperma ishlab chiqarish uchun kerakdir. Bunday qayta bog‘lanish organizmda tabiiy gormonal muxitni ushlab turish uchun xizmat qiladi. Xatto androstenedion testosteron miqdorini oshirsa xam, uning tabiiy sekretiysi to‘xtaydi. 1-rasm



Har qanday ta’sirlar, xatto shunga o‘xshash «steroidli tabiiy» qo‘shimchalarni qabul etish xam bu tizim ishini buzishi mumkin. Qayta bog‘lanish gipotalamus va jinsiy bezlar o‘rtasida kommunikatsion liniya bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, GGG erkaklarda miya bilan tuxumdonni bog‘lovchi asosiy bo‘g‘indir. Endi o‘ylab ko‘ring, erkaklik xususiyatingiz past bo‘lsa...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валихонов У. Ш. Атлетик гимнастика // Андижон 2006, Б.6-32.
2. Воробьев А.Н., Сорокин Ю.Ш. Анатомия силы, Т.: ФИС, 1980.
3. Эдвард Коннорс, Майкл Маккорни, Питер Гримковский, Тим Кимбер. «Энциклопедия бодибилдинга»-Москва.,2000г.
4. Собиталиев Р. «Бодибилдинг энциклопедияси».-Т.. «Турон Замин».2015